


ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
МАҲАЛЛА ВА ОИЛАНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ВАЗИРЛИГИ
“МАҲАЛЛА ВА ОИЛА” ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ



**“ОИЛАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИ МУСТАҲКАМЛАШНИНГ ДОЛЗАРБ
МАСАЛАЛАРИ ВА МУАММОЛАРИ”**
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ
МАТЕРИАЛЛАРИ ТҮПЛАМИ
(19 марта 2021 йил)

**“АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И ПРОБЛЕМЫ УКРЕПЛЕНИЯ
СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ”**
СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
(19 марта 2021 года)

**“TOPICAL ISSUES AND PROBLEMS OF STRENGTHENING FAMILY
VALUES”**
COLLECTION OF MATERIALS OF THE REPUBLICAN SCIENTIFIC-
PRACTIC CONFERENCE
(March 19, 2021)



Тошкент - 2021

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
МАҲАЛЛА ВА ОИЛАНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ВАЗИРЛИГИ
“МАҲАЛЛА ВА ОИЛА” ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ



**“ОИЛАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИ МУСТАҲКАМЛАШНИНГ ДОЛЗАРБ
МАСАЛАЛАРИ ВА МУАММОЛАРИ”
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ
МАТЕРИАЛЛАРИ ТҮПЛАМИ**
(19 марта 2021 йил)

**“АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И ПРОБЛЕМЫ УКРЕПЛЕНИЯ
СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ”
СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**
(19 марта 2021 года)

**“TOPICAL ISSUES AND PROBLEMS OF STRENGTHENING FAMILY
VALUES”
COLLECTION OF MATERIALS OF THE REPUBLICAN SCIENTIFIC-
PRACTIC CONFERENCE**
(March 19, 2021)

- X.RAHMONQULOVA, D. TOIROVA. Jamiyat ma'naviy asoslarini rivojlantirishda oilada ayollarning tutgan o'tni
3.А.САЛИХОВА. Оилада китобхонлик оркали маданиятни шакллантириш
С. ХОЛБОЕВА. Особенности семьи и семейных взаимоотношений в жизни студенческой молодежи
Ш.О.АРИПОВ, М.ШАМСИДДИНОВА. Ёшлар тарбиясида қадриятларнинг ўрни
Г.Г.ТАГИЕВА. Хотин-қизларни ижтимоий қўллаб-куватлашда ижтимоий таъминотнинг ўрни
Т.Р.ХАБИЕВ. Социальная помощь неблагополучным семьям как мера профилактики социального сиротства
З.ҚУРБОННИЁЗОВА, Н.НАГМЕТОВА. Қоракалпогистон ҳудудида “Аёллар дафтари” янги тизимини жорий этишининг ўзига хос хусусиятлари
Х.ЮСУПОВА. Хотин-қизларни ҳар томонлама ижтимоий қўллаб-куватлаш – ўзбекистон давлатининг устувор мақсади.

ТЎРТИНЧИ ШЎЪБА ОИЛАВИЙ ИНЌИРОЗЛАР ВА ОИЛА МУАММОЛАРИНИНГ МАЊНАВИЙ-ПСИХОЛОГИК АСПЕКТЛАРИ

259 бет

- А.А. БАЗАРОВ. Ўзбекистон республикасида миграция муаммоларининг хукуқий жиҳатлари
З.РАСУЛОВА. Ёш оиласарнинг ижтимоий-психологик муаммолари
М.ХОЛИҚОВА. XXI аср контекстида ўзбек оиласининг социомаданий хусусиятларига бир наза
Д. А. МАДЖИДОВА. Мехнат мигрантлари оиласарида ота-она-бала муносабатларининг педагогик-психологик ташхиси ва коррекциясини ташкил этиш ва олиб бориш
М.АБДУЛЛАЕВА. Оилавий муаммоларнинг этнопсихологик хусусиятлари
Ш.ТАЙЛНОВА. Болалар тарбиясида таълимий қадриятларнинг муаммовий масалалари
F. S. МАНАМАТОВА. Jamiyat rivojlanishida oila mustaxkamligi va farzand tarbiyasi
N.SH. JUMANOVA. Farzand va uning tarbiyasida oilaning roli
С.М.ЙЎЛДОШЕВА. Оилада мањавий-ахлоқий иммунитетни шакллантириш омиллари
Д. ХУДАЙБЕРГЕНОВА. Психологик ёндошувлар асосида ёшларни касб танлаш ва оиласага тайёрлаш
К.ТОДЖИБАЕВА. Инклузив таълим шароитида оила ва таълим муассасаси хамкорлигининг педагогик-психологик асослари
Д. Б. ИСЛАМОВА. Тутинган оиласар ва болалар ўзаро психологик мослашувиининг назарий-методологик асослари
F. S. NAZAROVA, SH. RASHIDOVA. Ingliz tilini o'rganish zamonaviy yoshlarning qadriyati sifatida

qurilganligi, ayniqsa, ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'l shidir. Ota-onalar farzandining bugungi muallimi hisoblanadi. Chunki farzandga til o'rganish, kitob o'qishga qiziqtirishi aynan oiladan boshlanadi. Hozirgi kunda farzandlarimizning har qanday insoniylikdan yiroqlashtiradigan illatlardan asrash uchun ularni ilm olishga, kitob o'qishga qiziqtira bilish lozim. Farzandni tarbiyasida har bir ota-onan o'z mas'uliyatini har bir daqiqa his qilib yashashi lozim.

Demak, xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, oilaning mustaxkamligi va sog'lom muhitni qaror toptirish ko'proq ota-onalarimizga bog'liq ekan. Chunki, ota va ona bolaning birinchi murabbiysi, uni tarbiyalashda shaxsan ibrat ko'rsatuvchi ta'sirchan omil hamdir. Tarbiya usullarini o'rgatish, o'mi kelganda nasihat qilish ota-onaning vazifasidir. Har bir ota-onan tarbiyaning o'ziga xos nazariy va amaliy qonun-qoidalarini o'zlashtirib, ularga amal qilishi lozim. Negaki, oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik masala bo'lib, ota-onadan pedagogik bilim, katta tarbiyachilik mahorati, bolalarning o'ziga xos tushunchalarga ega bo'l shini talab etadi. Oila tinch va mustaxkam bo'lsa, jamiyat ham mustaxkam bo'ladi va rivojlanadi. Bunga sabab oila - davlat ichra kichik bir davlatdir. Shu sababli ham bunday oilalarda ota-onalarning bir - biriga ishonishi, farzand to'g'risida er va xotinning mas'uliyatini to'g'ri hamda ongli ravishda anglashi, shuningdek, ota-onalarning oila jamiyatning bir bo'lagi ekanligi va unda o'sayotgan yosh avlod bo'lg'usvi jamiyatning egalari ekanliklarini tani - joni bilan his etishlari kerak. Bu ayniqsa biz yashayotgan diyorimizda o'ta muhim bo'lib, oila davlat tayanchiga aylangan va davlatimiz muhofazasida.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://ok.ru/mashxurins/topic/66451108580205>
2. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar - ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir // <https://uza.uz/oz/posts/jismoniy-va-ma-naviy-yetuk-yoshlar-ezgu-maqsadlarimizga-yeti-30-06-2017>
3. Maxamatova, F. (2020). Ta'lif-tarbiya samaradorligini oshirishda ota-onan ibrat namunasi. Arxiv Nauchnykh Publikatsij JSPI.
4. Maxamatova, F. (2020). Oilada farzand ma'naviy tarbiyasiga ruhiy ta'sirlar. Arxiv Nauchnykh Publikatsij JSPI.
5. Maxamatova, F. (2020). Sog'lom oilaviy muhitni himoya qilishning qonuniy asoslari. Arxiv Nauchnykh Publikatsij JSPI.

N.SH. JUMANOVA
JDPI Umumiy psixologiya kafedrasini o'qituvchisi

FARZAND VA UNING TARBIYASIDA OILANING ROLI

Annotatsiya: Mazkur maqolada farzand tarbiyasi borasida oilaning roli, ularning axloqiy jihatdan tarbiyalashda oiladagilarning o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, oila, ota-onan, farzand, axloq, madaniyat.

Н.Ш.ЖУМАНОВА

Преподаватель кафедры Общей психологии Жizzakского государственного педагогического института

РОЛЬ СЕМЬИ В ВОСПИТАНИИ РЕБЕНКА

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос о роли семьи в воспитании ребенка, о нравственной основе семейного воспитания.

Ключевые слова: воспитание, семья, родители, этика и мораль, культура.

N. SH.ZHUMANOVA

Lecturer at the Department of General Psychology of the Zhizzak State Pedagogical Institute

THE ROLE OF THE FAMILY IN RAISING A CHILD

Annotation: This article examines the issue of the role of the family in the upbringing of a child, the moral basis of family upbringing.

Key words: education, family, parents, ethics and morality, culture.

Xalqimizda kishining qanday ekanligi, uning o'zini tutishi, tarbiyasi, fe'l-atvori oilasiga bo'lgan munosabat bilan baholanadi. Bu esa uning jamiyatda o'z o'rmini topishida muhimdir. Xalq tarixiga nazar tashlaganimizda ham, eng qadrli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharm-u hayo, mehr-u oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar eng avvalo oilada shakllanishiga guvoh bo'lamiz. Odobli, bilimdon va aqlii, mehnatsevar, imon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Shuning uchun ham oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etilib, bolaning shaxs sifatida shakllanishi, kelgusida jamiyatda o'z o'rmini topishi hamda ma'naviy barkamol inson bo'lib yetishishida asosiy poydevor hisoblanadi. Biroq oila deb atalmish muqaddas maskanda kamol topayotgan farzand tarbiyasiga hozirgi kunda barcha oilada ham yetarlicha e'tibor berilyapti, deb ayta olamizmi?

Shunday oilalar bor: ota-onasi ziyoli, farzandlar ham ularning izidan borgan va kasb - hunari ortidan jamiyatda o'z o'rmini topishga erisha olgan. Yana shunday oilalar borki, otasi yoki onasi ziyoli, jamiyatning ishongan vakiliga aylangan bo'lsa-da, farzandlar ilmu-hunar egallashda, kasb tanlashda adashgan. Oxir oqibatda ma'naviy bo'shliq sabab farzand o'z maqsadini aniq qo'ya olmagan, shu bois, doim muammolar girdobida...(Afsuski, bu holatga ko'plab misollar keltirish mumkin.)

Shuni alohida e'tirof etish lozimki, ma'naviyatli oilada ota-onaning mehru-muhabbat nashidalaridan bahramand kamol topgan, faqat ezgulik va yaxshilik oliy qadriyat ekani uqtirilgan xonadonda ulg'aygan farzand oila muqaddas maskan ekanini, uning axloqiy qadriyatları ota-onaning ibrati namunasi ekanini, nikoh munosabatlariiga bepisandlik qonunga ham, milliy mentalitetga ham to'g'ri kelmasligini yaxshi biladi va aytish mumkinki, ota-onaning xalq, mahalla ko'y oldida yuzini yerga qaratadigan kechirilmas xatolar qilmaydi.

Bugun rivojlangan yurtimizda jamiyat va davlatning oilaga g'amxo'rliji ijtimoiy siyosatimizning muhim yo'nalishiga aylangani, oila huquqi, oilaviy munosabatlarga alohida e'tibor qaratilayotgani, oila jamiyatning asosiy bo'g'iniga aylangani bejiz emas. Umr atalmish ulug' ne'mat insonga bir bor beriladi.

O'zbek xalqi kechirimliligi, mehr-oqibatliligi hamda insonparvarligi bilan boshqa millat vakillariga namuna bo'lib kelgan. Bilib bilmay xatoga yo'l qo'ygan insonga ham keyingi hayotini to'g'ri yo'lga qo'yishi, xatosini tuzatishiga yordam berish - bizning oliyanob faziatlarimizdan sanaladi. Bu borada faqat axloq qadriyatları emas, balki, qonunda ham oilaviy munosabatlarga alohida to'xtalib o'tilgan. Bu esa oz o'rniда bizni nafaqat axloq qadriyalariga hurmat, balki qonun oldida ham ma'suliyatli ekanimizni anglatadi. Oila kodeksida: "Oila huquqi oila

a'zolari o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Shaxsiy nomulkiy munosabatlar er-xotinning familiyasi, bolalar tarbiyasi, oila turmushi masalalarini hal qilish, mashg'ulot turi, kasb va turar joy tanlash huquqlaridan iborat. Oilaviy huquqiy munosabatlar esa fuqarolar o'rtasida bo'ladigan va oilaviy huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi"- deb belgilab qo'yilgan. Bundan anglaymizki, har bir oila taqdiri davlatning diqqat markazida. Yurtimizda har bir oila, har bir inson taqdiri va manfaatlari islohotning asosini tashkil etar ekan, biz ham o'z taqdirimiz, kelajagimizga jiddiy e'tibor bersak, maqsadga muvofiq bo'ladi, nazarimda.

Yosh avlodning kamolini ta'minlashimizda ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishimiz, bolani yoshligidan fan to'garaklariga jalb eta olishimiz, maktab-oila-mahalla hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yishga erishuvimiz - buyuk bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temur ta'biri bilan aytganda, "Baland minora ham yerdan ko'tarilishi"ni unutmasligimiz lozim.

Oila atalmish muqaddas dargohda nafaqat farzand dunyoga keladi, balki ma'nani va axloqan go'zal tarbiya egasi bo'lgan inson voyaga yetadi. Oila shunday makonki, unda avlodlar kamol topadi. Ajdodlarimiz azaldan oila mustahkamligi, sog'lom avlodning yaralishi yo'lida doimo e'tiborda bo'lgan.

Dunyoni o'z ma'naviy merosi bilan lol qoldirgan, hali-hanuz nomi tillarda hurmat bilan yodga olinadigan Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Mahmud Zamahshariy, Alisher Navoiy kabi ajdodlarimiz oilada bola ta'lim-tarbiyasiga e'tibor - o'zbek xalqi hayotining mazmuni ekaniga yorqin misoldir.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.- Toshkent: O'zbekiston-2014, -B. 21
2. Davlat va huquq asoslari. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik. –Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2018/-B. 9
3. Ma'naviyat asoslari. O'rta umumta'lim maktabalarining 10-11-sinflari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service-2018. –B. 15

С.М.ЙЎЛДОШЕВА

ЎзДЖТУ, Педагогика ва психология кафедраси доценти,
педагогика фанлари номзоди

ОИЛАДА МА'НВАЙ-АХЛОҚИЙ ИММУНИТЕТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

Аннотация. Оилада ёшлар тарбияси ва уларда соғлом турмуш тарзи ва ма'навий-ахлоқий иммунитетни шакллантириш ва уларга таҳдидларни олдини олиш масалалари долзарб бўлиб бормоқда. Ушбу мақолада шахсдаги заарарли одатлар, иллатлар, тарбиясидаги ноқисликлар мазмуни аникланиб, уларга оиласда педагогик таъсир кўрсатиш ва ма'навий дунёқарашини шакллантириш омиллари таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: оила, тарбия, қадриятлар, таҳдидлар, заарарли одамлар, иллатлар.